

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

# ADABIYOT

# 9

sinf

9-sinf o'quvchilari uchun darslik

*Ikkinchi qism*

O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari  
agentligi tomonidan tasdiqlangan

Toshkent - 2022

UO'K 821.512.133.09(075)

KBK 83.3(5O')ya72

A 29

**Tuzuvchi-mualliflar:**

J. Nurmuhhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov,  
M. Yuldasheva, S. Inomjonova.

**Mas'ul muharrir:**

Q. Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

Yu. Do'smatova – Olmazor tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning  
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'. Ro'ziyeva – Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining  
oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Sh. Hamidova – Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining  
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

**Ta'limga bo'yicha xalqaro ekspert:**

Mishel Gadi

9-sinf adabiyot darsligini yozishda xalqaro va milliy adabiy ta'limning ilg'or tajribalariga tayanilgan bo'lib, adabiyotning san'at sifatidagi ahamiyatini oshirish maqsadida asarning kino, tasviriy san'at, teatr, radio talqinlari ham darslikda aks etgan. Bu orqali o'quvchilar bir asarni turfa yondashuvlar asosida o'rGANADI.

Shuningdek, har bir mavzu o'quvchining mustaqil o'zlashtirishi, erkin tahlil qilishi, topshiriqlar ustida kichik tadqiqot olib borishiga moslashtirilgan. Darslikda o'quvchilar ijodkorligini, tanqidiy-ijodiy fikrlashini, badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan savol-topshiriqlar aks etgan. Qolaversa, o'quvchilar badiiy asarlarni ma'lum parchalar asosida emas, balki to'liq mutolaa qilishi ko'zda tutilgan bo'lib, asarning darslikda aks etmagan, mustaqil mutolaaga mo'ljallangan qismlariga qiziqtirish va diqqatni oshirish maqsadida "Xatcho'p" rukni ishlab chiqilgan.

Darslik tuzilish jihatdan ikki qismdan: birinchi qism I – II chorak, ikkinchi qism esa III – IV chorak mavzularidan tashkil topgan.

*Barcha huquqlar himoya qilingan.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'limga muassasalari agentligining yozma  
ruxsatisiz ko'paytirish, targatish, qisman yoki to'liq ko'chirish taqiqilanadi.*



## MUNDARIJA

- |     |  |
|-----|--|
| 5   | TOG'AY MUROD HAYOTI VA IJODI. "OT KISHNAGAN OQSHOM" QISSASI          |
| 23  | ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI. G'AZALLAR                 |
| 35  | SHUKRULLO HAYOTI VA IJODI. "KAFANSIZ KO'MILGANLAR" ROMANI            |
| 57  | XOTIRA YOZISH SAN'ATI  |
| 59  | NAZAR ESHONQUL HAYOTI VA IJODI. "SHAMOLNI TUTIB BO'L MAYDI" HIKOYASI |
| 71  | SHAROF BOSHBEKOV HAYOTI VA IJODI. "TEMIR XOTIN" KOMEDIYASI           |
| 91  | HALIMA XUDOYBERDIYEVA HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR                      |
| 103 | TOHIR MALIK HAYOTI VA IJODI. "ALVIDO, BOLALIK" QISSASI               |
| 123 | LUQMON BO'RIXON HAYOTI VA IJODI. "QUYOSH HALI BOTMAGAN" QISSASI      |
| 147 | ABDUVALI QUTBIDDIN HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR                         |
| 157 | UILYAM SHEKSPIR HAYOTI VA IJODI. "HAMLET" TRAGEDIYASI                |
| 191 | O'LJAS SULAYMON HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR                            |
| 199 | MUROD MUHAMMAD DO'ST HAYOTI VA IJODI. "DASHT-U DALALARD" HIKOYASI    |
| 213 | YASUNARI KAVABATA HAYOTI VA IJODI. "ANOR" HIKOYASI                   |
| 219 | SO'Z JILOSI  |
| 222 | TATİL UCHUN KITOBLAR   |



*Adabiyot – ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz  
yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi – meva tugmaydi.  
Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi,  
kitobxonning ko'nglida meva tugadi...*

*... Qayosh havo, per, suv barcha jonivor va ko'katlarga ozuqa  
berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qan-  
chalik iste'dodli, uning qalam tutgan qo'li qanchalik tajribali bo'lsa,  
xalq undan shunchalik chuqurroq minmatdor bo'ladi, uning ijodini,  
umuuman, adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi.*

*Abdulla Qahhor*



# TOG'AY MUROD

"OT KISHNAGAN OQSHOM":  
MILLIYLIKKA YO'G'RILGAN OBRAZLAR IFODASI

*Mavzuni o'rghanish jarayonida:*

- asardagi obrazlarni tahlil qilamiz;
- yozuvchining qissada aks etgan qarashlarini tahlil qilamiz;
- qissaning badiiyatini, o'ziga xos tili va uslubini o'rghanamiz.



“

*E'tirof*

Adabiyot qachon adabiyot bo'ladi? U bor haqiqatni ayta olsa, hayotning achchiq tomonlarini ko'rsata olsagina adabiyot bo'ladi. Mayli, shirin damlarni ham ko'rsatsin. Faqat bir tomonlama bo'lib ketmasin, hayotning baxtli onlari bo'lsa, ularniyam yozsin. Lekin haqiqatdan ko'z yumib yozilsa, bu asarning qiymati bir tiyin bo'ldi. Adabiyotda bu eng katta masala! Tolstoy aytgan bir gap bor: adabiyotning bosh vazifasi – haqiqat, haqiqat va yana bir marta haqiqat! Tolstoy adabiy asarga qo'ygan talablarga Tog'ay Murod ijodi juda to'g'ri keladi.

**Odil Yoqubov, O'zbekiston xalq yozuvchisi.**



## IJODKOR HAQIDA

### *Hayoti va faoliyati*

Tog'ay Murod (Tog'aymurod Mengnorov) 1948-yili 3-fevral kuni Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi Xo'jasoat qishlog'ida tug'ilgan.

Yozuvchining o'zi yozadi:

*"Maktabda hikoyalalar mashq etdim. Toshkent davlat dorilfununi Jurnalistika fakultetini tamomladim. Dorilfununda hikoyalalar mashq etdim. Jumhuriyat radiosida to'rt yil muharrir bo'lib ishladim. Qizil Armiya saflarida harbiy xizmat qildim. Ikki yil "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetasida tarjimon bo'ldim. "Fan va turmush" jurnalida ikki yil muharrir bo'lib ishladim. Moskvadagi Jahan adabiyoti institutida o'qib keldim..."*

*Men faqat bir maqsadni ko'zladim: o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha jahon adabiyotini o'qish. Faqat o'qish, o'qish, o'qish, qo'l qotib olmasin uchun mayda-mayda hikoyalalar mashq etib turish.*

*Men shu niyat yo'lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shonshuhrat qizg'anmadim. Men dunyo talashmadim! Faqat izlandim, faqat o'qidim... Bir chaqasiz kunlarim bo'ldi. Ijara haqini to'lay olmay, ijaradan haydalmish kunlarim bo'ldi. Boshpanasiz kunlarim bo'ldi.*

*Men qishlog'imga qaytdim. Onam sandiq kovaldi. Lattalar ostidan bir tuguncha oldi. Tugunchani uch-to'rt aylantirib ochdi. Tugunchadan besh-olti so'm pul chiqdi. Onam shu pulni menga uzatdi. Shunda... men bir boshqa bo'lib qoldim. Men tashqari otilib chiqib ketay dedim.*

*Bu pul... onamni... o'lilik puli bo'ldi. Men devorni ushlab qoldim.*

*- Olmayman... - dedim.*

*- Ol, sen shoир bo'lsang bo'ldi, ol, - dedi onam.*

*- Yo'q... - deya bosh chayqadim.*

*- Ol, sen shoир bo'limguningcha men o'lmayman, - dedi onam. - Men sening shoirligingni ko'rmagunimcha o'lmayman.*

*Men tag'in Toshkent qaytib keldim..."*

Shu tariqa Tog'ay Murod Toshkentda umrining oxiriga qadar qizg'in ijod bilan mashg'ul bo'ldi.

Yozuvchiga Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti (1994), 1999-yilda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni berilgan.

Tog'ay Murod 2003-yil 27-may kuni vafot etdi.

### *Asarlari*

**Hikoyalari:** "Bobosi bilan nabirasi", "Kuzning bir kunida", "Ku-kuku", "Er-xotin" va boshqalar.

**Qissalari:** "Yulduzlar mangu yonadi" (ilk qissasi, 1976-yil yozilgan. Dastlabki nomi – "Davra"), "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Momo yer qo'shig'i" (ilk nomi – "Qo'shiq").

**Romanlari:** "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi".

**Tarjimalari:** Jek Londonning "Boyning qizi" dramasi va bir qancha hikoyalarini, E. Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" asarini tarjima qilgan.



## MUTOLAADAN OLDIN...

Mutolaasi boshlanayotgan asar – "Ot kishnagan oqshom" qissasi 1979-yilda yozilgan va ilk bor "Yoshlik" jurnalida e'lon qilin-gan. Qissa Ziyodulla chavandoz va uning oti bilan bog'liq voqealar haqida so'zlaydi.


Akademik To'r'a Mirzayev yozuvchi qissani yozishga qanday tayyorlanganini quyidagicha hikoya qiladi:

*...Yangi asarlariga materiallar toplash maqsadida u bo'limga (O'zRFA Til va adabiyot institutining folklor bo'limi) yana kelib qoldi. Bu gal uni folklorda otning tasvirlanishi masalalari qiziqti-rayotgan edi. Yozuvchi atoqli folklorshunos Hodi Zarifning (1905-1972) "O'zbek xalq dostonlarida jangovar ot obrazi", "Ot asboblari" tadqiqotlari bilan tanishib chiqdi. Unga jangovar ot tarbiyasi, uning turli holatlari tasvirlangan "Alpomish", "Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi", "Xushkeldi" kabi dostonlarni sinchiklab o'qishni maslahat berdik. Suhbatlarimiz davomida kutilmaganda: "Otlar ham yig'laydimi?" – deb so'rab qoldi. Biz unga xalq orasida ot bilan bog'liq turli-tuman tasavvur va afsonalar ko'pligini, hatto ot egasi vafot etganda, otni egar-abzallab, egasining etigini egar qoshiga ilib, ayollarining otni o'rtaga olib yig'i berish odatlari mavjudligini, folklor asarlaridagi shunday holatlarda otning yig'laganligi tasvirlarini so'zlab berdik. Shundan keyin yozuvchining "Ot kishnagan oqshom" qissasi paydo bo'ldi..."*

**Tog'ay Murod "Men" nomli tarjimai holida quyidagicha yozadi:**

*...Kech kuzda yurtimizga yo'l oldim.*

*Sattor chavandoz degich bilan til topishdim. U menga bir ot topib berdi. Men... otlandim! Sattor chavandoz bilan qishloqma-qishloq yurdim. To'yma-to'y yurdim. Ko'pkarima-ko'pkari yurdim. Kunduzlari turli yurtlardan kelmish chavandozlar bilan ko'pkari chopdim. Necha bor otlardan yiqildim. Kechalari to'yxonalarda chavandozlar bilan gurung qildim. Chavandozlar do'mbira chalib, ko'pkarilardan so'yladi, otlardan so'yladi, chavandozlardan so'yladi. Uzun qish ko'pkarixona – ish joyim bo'ldi, chavandozlar – hamxonam bo'ldi, otlar – birodarim bo'ldi. Nihoyat ko'klamda "Ot kishnagan oqshom" nomli ikkinchi qissamni jurnalga ko'tarib keldim. Qissa adabiyot osmonida bir momoqaldoq bo'ldi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hisobot yig'ilishida yilning eng yaxshi qissasi, deya baholandi. Men yelkamdan nafas oldim. Men entikdim. Men xumordan chiqdim!.."*



*Qissaning 1994-yilgi  
nashr muqovasi.*

### Topshiriq

Siz ham biror ijodiy ishingizni (she'r, hikoya, badia yoki insho kabi) yozish uchun ma'lum bir tayyorgarlik ko'rganmisiz? Bu jarayon qanday kechgan? Shu haqida so'zlab bering.



## “OT KISHNAGAN OQSHOM”

(qissa)



1

Birodarlar, ko'rgilik, ko'rgilik!

Bir erta uyg'onib, kallamga qo'l yogurtirdim. Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi. Parvoym falak bo'ldi, yura berdim. Onamga-da aytmadim.

Chaqalar kun sayin bolaladi. Katta-katta bo'ldi. Qo'tir bo'lib qichidi.

Shunda qishlog'imiz do'xtiriga bordim. Do'xtir fu, deya aftini burishtirdi. Yurchidagi kalxonaga olib jo'nadi.

Yo'lda mashinadan tashlab qochdim. Ushlab kelib, yana mashinaga bosdi.

Kalxonada... Uh, aytgiligi yo'q. Do'xtir degani berahm ekan. Onamni ko'rdim, birodarlar, onamni...

Bari kalga qaytadan jingala soch bitdi. Mening kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch bitmadi! Do'xtirlar ajablandi, kamdan kam uchraydigan voqea, dedi. Xo'rligimdan yig'lab-yig'lab uyga keldim.

Onamiz tap-taqir kallamni ushlab-ushlab ko'rdi. Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib yig'ladi.

- Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi, degani shu-da, - dedi.

Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin quloqlarimgacha bostirib kiyib yurdim. Maktabda-da telpagimni olmadim.

Matematika muallimimiz oyog'ini tirab talab etdi;

- Bosh kiyimingni olmasang, dars o'tmayman! - dedi.

Old qatorda o'tirgan sinf oqsoqolimiz muallimiga bir nimalar dedi. Ammo muallim o'z so'zida turdi:

- O'quvchi darsda yalangbosh o'tirishi lozim! Qoida shunday!

Telpagimni kallamga bosib ushладим.

- O'quvchi Qurbanov, senga aptyapman!

Miq etmadim. Muallimimiz telpagimni boshimdan yulib oldi. Derazadan tashqariga otib yubordi.

Sinfimiz bolalar kulgisidan zirillab ketdi. Bolalar kallamni oftobga mengzab qiyqirdi:

- Ura-a-a, kun chiqdi!

Kallamni qo'llarim bilan yashirdim, ho'ngrab yig'ladim. Siyohdonni olib, muallimning yuziga ottdim. Tegmadi. Keyin tashqari otildim. Maktabdan qochib ketdim.

Yana qaytib maktabga oyog'imni bosmadim. Direktor bilan sinf rahbarimiz kelib tavallo qildi. Onamiz aldab-avradi. Baribir maktabga bormadim.

Beshinchisinf kallam bilan qoldim.

2

Odamlar meni kal deydigan bo'ldi! Ziyodulla kal emish! E, tavba-e, tavba-e!

Avval-avval uyatdan quloqlarimgacha lovullab yondim. Ko'nglim o'ksidi. Keyin-keyin botmaydigan bo'ldi. Kal so'zi ko'nglimga singdi. Qu洛qlarim kalga o'rganib qoldi.

Endi Ziyodulla kal demaydiganlardan o'pkaladim. Ayniqsa, pochtachidan hafsalam pir bo'ldi. Qachon ko'rsa, o'rtoq Qurbanov deydi. G'ashim keladi. Meni mayna qilayotganday tuyuladi.



Bir safar jerkib tashladim:

- Nimaga meni o'rtoq Qurbonov deysiz? Men bir amaldormidimki yo diplomim bormidiki o'rtoq Qurbonov deysiz? Bor-yo'g'i beshinchি sinf kallam bo'lsa. Ko'p mayna qilmang, sochim bo'lmasayam tarog'im tillidan!
- Bo'lmasa nima deyin?
- El qatori Ziyodulla kal deya bering. O'z otim o'zim bilan...

Xudoga shukur-e, endi pochtachi-da kal deydigan bo'ldi! Diplom so'ramaydigan turli ishlarda ishladim. Qorovul bo'ldim, go'loh bo'ldim. Oxiri podachi bo'ldim. El qo'yini boqdim.

Adirlarda qo'y boqib, nay chaldim. Nafasim yetmay qoldi. Shunda eski bir do'mbira topdim. Do'mbiramni sayratdim, bepoyon adirlar, yoyilib o'tlayotgan qo'ylar, cho'qqilar uchida uzmay chug'urlayotgan qushlar, pag'a-pag'a oppoq bulutlarga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to'ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo'yib, biri aytar edi. Bobolarning ko'plari rahmatlik bo'ldi. Rahmatliklarday doston aytib bo'lmaydi. Bizniki baholi qudrat...

### 3

Birodarlar, siz so'ramang, men aytmayman... Oti Momosuluv emish. Yuzlari kulchadaymi, yo suluvmi? Ko'zları qorami, yo zig'ir gulidaymi? Qoshlari quyuqmi? Quyuq bo'lsa, qayrilmami? Kechasiligidan ko'rmas emishman, bilmas emishman.

Ko'roydin emish. Momosuluvlar ko'chasida telba bo'lib yurar emishman. Bir nima yo'qtganday tentirar emishman. Yo'l chetidagi toshga cho'nqayibman, kaftlarimni iyamgimga tirabman. Oyga mahliyo bo'lib-mahliyo bo'lib termilibman. Oyning beti kir emish. Oyga sonsiz oshiqlar mahliyo termildi. Oy qaysi oshiqqa bir o'pitch berdi? Oy qaysi oshiqqa vafo qildi?

Oyga qo'l siltab, o'rnimdan turibman. Momosuluvlar devoridan oshibman. Iti yo'q emish. Daraxtlar panalab, derazasiga termilibman. Olmalaridan uzib-uzib yebman. Keyin ayvoniga, undan ichkariga kiribman. Timirskilanib to'shagini topibman. Momosuluv uyg'onib ketibdi, chirillaryman, ket debdi. Men yolvoribman. Qo'limni uzatibman. U qo'limni qaytarib, o'zimga suribdi. Keyin Momosuluvning qo'yniga kiribman!

Birodarlar-e, jamiki olam bir taraf, qo'yin deganlari bir taraf ekan! Ahay-ahay!

Boriga shukur qilsam bo'lasmidi? Tek yotsam bo'lasmidi? Qo'yniga qanoat qilsam bo'lasmidi?

Men tinmas, Momosuluvning ko'ngliga-da kiribman! Oshiqona-oshiqona qadamlar bosib, ko'nglini ovlabman. Zim-ziyo bir olam emish. Tevarak huvillab yotarmish. Qimir-lagan jon yo'q emish. Erkak zotining o'zi tugul, izlari-da yo'q emish. Behishtday bir olam emish.

Tevarakka alanglab, kular emishman: ushbu behishtga mendan o'zgalar kelmabdi!

Ko'nglimni zo'r bir xushvaqtlik qitiqlar emish: ushbu behishtga birinchi bo'lib men qadam qo'yibman! Ahay-ahay!

Ko'zimni ochsam uy zimiston, bolishni quchoqlab yotibman.

Uyqum qochdi. Uyqumni quvalab, shiftga qarab yotdim. Chin, qishlog'imizda shunday qiz bor. Oti Momosuluv.

*"Endi Ziyodulla kal, demaydiganlardan o'pkaladim. Ayniqla, pochtachidan hafsalam pir bo'ldi. Qachon ko'rsa, o'rtoq Qurbonov deydi. G'ashim keladi. Meni mayna qilayotganday tuyuladi..."*

Ertalab ta'til qildim<sup>1</sup>. Belimga tushlik o'radim. Zarang tayog'imni oldim.  
 Elburutdan podayotoqqa bordim. Bir toshga yonboshlab oldim.  
 El qo'y-echkilarini haydab keldi. Shunda... shunda, u-da keldi!  
 Men o'rnimdan turib qaradim. Xayolimda, yuzlarim lovullab qizidi.  
 U qo'lidagi xivichni qo'ylari ketidan otib yubordi. Iziga qayrilib ketdi. Menga qayrilib-da  
 qaramadi. Ajabo, u kecha meni ko'rdimikin? Uyalganidan tez qayrilib ketdimikin?  
 Birodarlar, shu qiz ko'z oldimdan ketmay qoldi! Kechasi-da, kunduzi-da! Shu qizga sov-  
 chi qo'ydim!

- Tegmayman, kallasi kal, - debdi.

Yo, pirim-ey, yo pirim-ey! Kal bo'lsa nima bo'pti? Gap jundami? Junda aql bormi, xohla-  
 gan yeriga bita beradi-da. Birovga quyuq bitadi, birovga siyrak bitadi. Yana birovga bit-  
 ta-da bitmaydi. Bu yaratganning ishi-da!

Jun ekish dehqonchilikmidiki, ayb bo'lsa! Ana, kallasiga jun ekmadi, eksa-da, sug'orib,  
 parvarishlamadi, oqibat, qurib qoldi, desa. Mayli, ana unda meni kamsitsin. Ziyodulla  
 kalda erkaklik uquv yo'q, mushtday kallasiga jun ekib ololmadi desin. U yaxshi er bo'lmay-  
 di desin...

Men baribir shashtimdan qaytmadim. Sovchini bosib qo'yaberdim.

- Aytib qo'yinglar, men hali ot olib, ko'pkari chopaman! - dedim.

Momosuluv noz qilib-qilib, oxiri ko'ndi!

To'y-tomosha bo'ldi. U mastona-mastona qadam qo'yib, chimildiqqa kelin bo'lib kirdi.  
 Men mardona-mardona odim qo'yib, kuyov bo'lib kirdim.

Momosuluvga ko'rgan tushimni aytib berdim.

- Sen ham shunday tush ko'rib edingmi? - dedim.

- Ko'rib edim, - dedi.

- Chiningni ayt, - dedim.

- Chinim, - dedi. - Lekin taniyolmay qolib edim, chiroq o'chiq edi, - dedi.

- O'sha men edim! - dedim, ko'kragimga urdim.

- Siz ekanligingizni bilib tegdim-da, - dedi.

- Ahay-ahay! - dedim.

Birodarlar, Momosuluv tushimda Cho'lpon edi, hushimda Oy edi, qo'ynimda Oftob  
 bo'ldi!

Bir suruv qo'y sotdim. Pulini belimga o'radim. Namoz chavandozni oldimga solib, Oboq-  
 liga jo'nadim.

Birodarlar, bizning Surxonda mana bunday gap bor: ot olsang, Oboqlidan ol, ayol ol-  
 sang. Irg'alidan ol!

Buning mag'zi shuki, ot deganlari dev! Ot bepoyonlikni deydi. Ot masofa nimaligini bil-  
 maydi. Ot qahraton qishda-da dasht-biyobonlarda chopib o'sadi. Ana shunda dirkillagan  
 ot bo'ladi!

Qo'ltiqlari cho'ziladi, ko'kraklari enlik bo'ladi! Uchqur keladi! Bedov ot bo'ladi!

Oboqli ana shunday dasht!

Irg'ali deganida qiz bor! Irg'alining qizlari zuvalasi pishiq keladi. Kiymagani yettinchi  
 kalish kiyadi! Barining beli baquvvat, bo'limli bo'ladi. Irg'alining qizlarini quchoqlasa,

<sup>1</sup> Ta'til (tahtil) qilmoq – nonushta qilmoq; umuman, ovqatlanmoq